



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2023  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-ракам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

профессор **Д.Х.Асланова**

**Масъул котиб:**

профессор **М.Қ.Пардаев**

**Муҳаррирлар:**

**Ф.А.Сафаров**

**Ш.З.Ўрозов**

**Техник муҳаррир:**

**А.Н.Холиқулов**

**Корректор:**

**С.А.Бабаназарова**

**Саҳифаловчи:**

**Ҳ.Н.Очилова**

1 йилда 4 мартаба  
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида  
тарқатилади.

**Таҳририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

[samisiservis@mail.ru](mailto:samisiservis@mail.ru)

**Таҳририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти  
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

**Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар  
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

**Таҳрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-  
тика кўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – иқтисод фанлари доктори, профессор.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ Самарқанд филиали директори,  
иқтисод фанлари доктори, профессор

**М.Р.Болтабаев** – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва  
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ кафедра мудир, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ декани, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ доценти, и.ф.д.

## МУНДАРИЖА

<b>НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ</b>	
<b>Саидахрор Саидахмедович Ғуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Учинчи Ренессансни шакллантириш таълим сифатига, таълим сифати педагогинг масъулиятига боғлиқ	5
<b>Зокир Сайфиддинович Артиков, Дамир Улугбекович Хакимов</b> Аҳоли фаровонлиги, ҳаёт даражаси ва сифатини таъминловчи неъматлар, уларнинг турлари, таснифи ва баҳолаш йўллари	10
<b>Зариф Юсупович Аминов</b> Инсон хавфсизлиги тушунчаси ва унинг турлари	16
<b>Шокиржон Шарипжонович Банноев</b> Маҳаллий озиқ-овқат бозорининг ижтимоий-иқтисодий моҳияти ва вазифалари	20
<b>Shahloxon Shavkatovna Sharifova</b> Halol ovqatlanishga doir asosiy kategoriyalar mohiyati va zarurati	25
<b>Акмал Алимжонович Салимов</b> Мамлакат тараққиётини таъминлаш ва уни самарали бошқаришда инсон капиталининг ўрни	31
<b>Ziyobidin Shaminovich Suvonov, Mavluda Shuxratjon qizi Shuxratjonova</b> Halol oziq-ovqat sanoati va uni O‘zbekistonda rivojlantirish istiqbollari	37
<b>ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ</b>	
<b>Нозир Алиевич Ибрагимов</b> Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва худуднинг инвестицион жозибадорлигини ошириш – тараққиёт гарови	42
<b>Шухрат Маъруфжонович Исломов, Нодира Абдуллаевна Эшқувватова</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида меҳнат ресурсларининг фаол бандлик сиёсати	46
<b>Sardorbek Isroiljon o‘g‘li Qodirov</b> O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tahlili	51
<b>Зарина Ҳусановна Рафиева</b> Рақамли технологиялар орқали банк-молия хизматлари самарадорлигини ошириш йўллари	57
<b>САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Рўзибой Нормухоматов, Акрам Джуракулович Ғафуров</b> Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлашнинг илмий асосларини билиш – нобудгарчиликни камайтиришнинг муҳим омилidir	63
<b>Умар Худайбердиев, Нилуфар Зиябаевна Юлдашова</b> Ўзбекистонда деҳқончилик маҳсулотларини етиштириш ва унинг муаммолари	65
<b>Раънохон Махмудовна Каримжанова</b> Наманган вилоятида қандолат маҳсулотлари бозорининг ривожланиш тенденциялари	68
<b>Музаффар Мусаевич Усмонов</b> К вопросам развития кооперации в плодоовощном секторе Узбекистана	72

Ziyobidin Shaminovich Suvonov – SamISI, — Servis kafedrasida katta o‘qituvchisi  
Mavluda Shuxratjon qizi Shuxratjonova – SamISI, — MN-120 guruh talabasi

## HALOL OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNI O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Annotatsiya:** ushbu maqolada dunyodagi davlatlar timsolida halol oziq-ovqat sanoati bozori xususiyatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, uni O‘zbekistonda rivojlantirish uchun takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** halol, halol oziq-ovqat, halol oziq-ovqat sanoati, musulmonlar, shariat, Islom mamlakatlari, halol sertifikat, musulmon iste‘molchilar.

**Kirish.** Dunyo bo‘yicha halol oziq-ovqat sanoati yildan yilga o‘tib borishi bilan bu turdagi oziq-ovqat nafaqat musulmon balki musulmon bo‘lmagan mijozlar tomonidan ham iste‘mol qilinmoqda. Dastlab musulmon bo‘lmaganlar va ayrim musulmonlar halol oziq-ovqatni xavfsiz va gigiyenik jihatdan foydali deb o‘ylashganlari uchun bunday mahsulotlarga bo‘lgan talab kuchaydi va keng qabul qilinishi bilan halol oziq-ovqat bozori paydo bo‘ldi. Hozirda halol oziq-ovqat bozori dunyodagi eng yirik iste‘mol bozorlaridan biriga aylanib ulgurdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki halol oziq-ovqat sanoatiga hissa qo‘shadigan dunyodagi musulmonlar soni keskin o‘shishi kuzatilmoqda. Shu tufayli halol oziq-ovqat sanoati va xizmatlariga bo‘lgan talab borgan sari ortib bormoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dunyoda yashaydigan musulmon aholining didi va qiziqishlari xilma-xilligi sababli oziq-ovqat bozorida halol oziq-ovqat mahsulotlariga talab katta ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu sohada dunyo olimlari Mian N. Riaz, Muhammad M. Chaudry [2], Florence Bergeaud-Blackler, John Lever, Johan Fischer [3], Wan Melissa Wan-Hassan, Khairil Wahidin Awang [4], Al Qaradawi [5]. o‘zining ilmiy asarlarida tadqiqotlar olib borishgan. Shu bilan birga MDH mamlakatlari olimlaridan Uzakov YA.M. [6]. Damir Muxetdinovlar [7]. Dunyoda halol oziq-ovqat bozori va ular uchun mahsulotlari ishlab chiqish talablari tahlil qilinadi. Bu borada O‘zbekistonda katta imkoniyatlar borligi bilan birga ilmiy-tadqiqotlar olib borilishini talab qilmoqda.

"Halol" so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, "erkin", "bog‘lanmagan" degan ma‘nolarni bildiradi. U shariatda musulmonlar uchun ruxsat etilgan xatti-harakatlar va ishlar, toza va pok hisoblangan oziq-ovqatlarni anglatadi. Demak, halol oziq-ovqat deganda bu shariatda ruxsat etilgan qonun va shartlarga javob beradigan taomlar tushuniladi.

Taomlar halol bo‘lishi uchun quyidagi shartlarga to‘laqonli mos kelishi kerak:

- musulmonlar uchun halol bo‘lmagan hayvon mahsulotlari yoki qismlari yoki shariat qonunlari bo‘yicha so‘yilmagan hayvon mahsulotlarini o‘z ichiga olmasligi;

- shariatda ko‘ra, tarkibida najas (shariat jihatdan nopok narsalar: qon, spirtli ichimliklar, it go‘shiti, cho‘chqa go‘shiti, ularning sutlari, o‘lgan hayvonlar va boshqalar.) bo‘lmagan taomlar;

- xavfsiz va zararsiz bo‘lishi;

- shariat qonunlariga ko‘ra, najas bo‘lgan narsalar bilan ifloslangan jihozlardan foydalangan holda tayyorlanmagan va ishlab chiqarilmagan bo‘lishi;

- ovqat yoki uning tarkibiy qismlari inson qismlarini ichiga olmasligi;

- oziq-ovqatlar tayyorlash, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash yoki tashish jarayonlari davomida yuqorida sanab o‘tilgan qoidalar bo‘yicha tayyorlanmagan boshqa mahsulotlardan ajratilgan holda amalga oshirishi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani tahlil qilish va tadqiqot jarayonlarida kuzatish, qiyoslash, tajriba, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Halol ko‘rsatmalarga amal qilish ayniqsa kunlik oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish, ovqatlanish tizimiga rioya qilish islomiy munosabatlarning eng muhim shartidir.

Dastavval, halol oziq-ovqat sanoati bilan shug'ullanish uchun davlatlar halol standarti va halol oziq-ovqat logotipiga ega bo'lishlari kerak. Aynan mana shu halol standarti va logotiplarini nazorat qiladigan tashkilotlar mavjud. Ular Islom Hamkorlik Tashkiloti (OIC, 1969) va Islom Mamlakatlari Standartlari va Metrologiya Instituti (SMIIC, 1998)dir. Ularning asosiy vazifalari tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida standartlarni uyg'unlashtirish va yangilarini tayyorlashning mustahkam mexanizmi sifatida a'zo davlatlarda uyg'unlashtirilgan standartlarni amalga oshirish va texnik nosozliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Undan tashqari, sertifikatlarni o'zaro tan olishdan boshlab, a'zo davlatlar o'rtasida materiallar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar va mahsulotlar almashuvini tezlashtirish maqsadida sertifikatlashtirish va akkreditatsiya sxemalarini belgilashdan iborat. Islom Hamkorlik Tashkiloti (OIC) ga 57 ta davlat va Islom Mamlakatlari Standartlari va Metrologiya Instituti (SMIIC) tashkilotiga esa 42 ta davlat a'zo bo'lgan.

Ko'pgina davlatlar orasidan Malayziya birinchi bo'lib global halol standartni o'rnatishga harakat qildi va 1974 - yilda Malayziyada milliy halol sertifikati joriy qilingan. Bu harakat bosh vazir idorasi huzuridagi Islom Ishlari Bo'limi tadqiqot markazi tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik, 2005 - yilda Malayziya Islom Taraqqiyoti Departamenti (JAKIM) halol sertifikatlash tizimini joriy qildi. U Malayziyada halolga muvofiqlikni nazorat qilishga mas'ul bo'ldi. Malayziyaning JAKIM halol sertifikatlash tizimi Islom Hamkorlik Tashkiloti (OIC) tomonidan xalqaro standartlashtirilgan logotip va barcha musulmon davlatlari tomonidan foydalanish uchun tasdiqlangan sertifikatlashtirish tizimi sifatida qo'llab-quvvatlanadigan yagona sertifikatdir. Malayziyaning yetakchi global halol markazi sifatidagi mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida 2006-yilda Halol sanoatini rivojlantirish korporatsiyasi (HDC) tashkil etilgan. U halol standartlarni takomillashtirish, tijorat va sanoat rivojlanishi hamda brendingni kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan. Malayziya hukumati, shuningdek, halol sanoatining bosh rejasini ham (2008-2020) amalga oshirdi. Bu - mamlakatni halol bilan bog'liq bir qancha sohalarda, jumladan, maxsus qayta ishlangan oziq-ovqatlar, ingrediylar, kosmetika va shaxsiy parvarish, farmatsevtika sohasida innovatsiyalar, ishlab chiqarish va savdo sohasida, chorvachilik, xizmatlar sohasida, xususan, logistika, turizm va sog'liqni saqlash sohasida jahonning yetakchi davlatiga aylanishiga sabab bo'ldi. Belgilangan halol bog'lari joriy etilishi Malayziyaning halol sanoatining o'sishiga turtki bo'ldi. Hozirda Malayziyada 25 ta halol tarmoqlari mavjud bo'lib, har bir halol tarmoqlari ma'lum bir halol sanoatiga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash kompaniyalari kabi bir qator ko'p millatli kompaniyalar (MCN) hozirda Malayziyada o'zlarining halol mahsulotlarini mahalliy va (ASEAN) Osiyo bozorlarida tarqatish niyatida o'zlarining oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini tashkil etishgan. Misol uchun, Nestle - dunyodagi eng yirik oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqaruvchilaridan biri bo'lgan Shvetsariya kompaniyasi 1970-yillar boshida "Nestle Malayziya" Malayziyada tashkil etilgan va uning barcha mahsulotlari JAKIM tomonidan sertifikatlangan. Hozirda Nestle Malayziya 8 ta halol oziq-ovqat fabrikasiga va bir nechta xususiy brendlarga ega, jumladan, Maggi, Nescafe va Milo. "Nestle Malayziya" o'z mahsulotlarini 50 dan ortiq mamlakatga eksport qilmoqda. Global arenada Malayziya 2020-2021-yillar uchun oltita sohadan to'rttasida, ya'ni halol oziq-ovqat, islomiy moliya, musulmonlarga do'stona sayohat, farmatsevtika va kosmetika sektorlari bo'yicha Global Iqtisodiy yillik indikatorida yana eng yuqori natijani qayd etdi va bu ketma-ket sakkizinchi yil hisoblanadi.

Yana bir halol oziq-ovqat sanoatida yuqori natijalarga ega davlat - Singapur. Singapurda halolni sertifikatlash organi (Majelis Ugama Islam/MUIS) mamlakatning ozchilik musulmon aholisiga xizmat qiladi. MUIS Halol xizmatlari 1973-yilda boshlangan va MUIS Halol sektorini tartibga solish uchun halol sertifikatlash standart birligini tashkil qilgan. MUIS Halal sertifikatining ishonchliligini doimiy ravishda oshirish maqsadida MUIS bir

nechta tashabbuslarni amalga oshirdi. Jumladan, MUIS e-Halol tizimi (2007), Halol sifat menejmenti tizimi (HalMQ; 2008) hamda MUIS Halol auditlari va tekshiruvlari (2009 - 2012). Singapurda oziq-ovqat sohasida halol sertifikatlash ixtiyoriy. MUIS ma'lumotlariga ko'ra, halol sertifikati Singapurda majburiy emas, agar korxonalar musulmon iste'molchilarni ham nishonga olgan bo'lsa, unda halol sertifikatiga murojaat qiladi. Singapurning halol sanoati so'nggi 10 yil ichida 5 barobar ko'proq rivojlanmoqda. Singapur Malayziya va Indoneziyadan keyingi yuqori salohiyatga ega mintaqa hisoblanib, halol oziq-ovqat bozori, turizm, shuningdek, halol sertifikati bo'lgan restoranlar, kafelar va oziq-ovqat do'konlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. 2015 - yilda Singapurga 15,2 million sayyoh kelgan, shu jumladan 2,73 million nafari Indoneziyadan va 1,17 million nafari Malayziyadan. Singapurning halol oziq-ovqat bozori gullab-yashnamoqda, oziq-ovqat va ichimliklar savdo nuqtalari ochilib, halol sertifikatlari berilgan. Mastercard-Crescent Rating Halal Food Lifestyle – Singapore 2021 ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda halol taomlar bozori 1 milliard singapur dollariga baholanmoqda, 700 million Singapur dollari mahalliy musulmonlar tomonidan sarflangan. Halol oziq-ovqat sanoatining yuksalishini halol sertifikatining o'sishida ko'rish mumkin. Singapur Islom diniy kengashi (MUIS), statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda 53 060 ta mahsuloti halol sertifikatiga ega bo'lgan, bu 2013-yilga nisbatan 160 foizga oshgan. 2013-yildan beri halol sertifikatiga ega restoranlar soni CAGR ko'rsatkichi 9,4 foizni tashkil etgan. 2019-yilda halol sertifikatlangan. Ushbu ovqatlanish joylarining 16 foizi savdo markazlarida joylashgan. Singapur birinchi marta Global islom iqtisodiyoti holati (SGIE) 2020/21 hisobotining yetakchi milliy ekotizimlarning islom iqtisodiyoti tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni eng yaxshi qo'llab-quvvatlashga qodirligini o'lchaydigan Global islom iqtisodiyoti ko'rsatkichida kuchli 15 talikka kirdi. Bu Singapur uchun islom iqtisodiyotining muhim roli va tezligini bildiradi. Singapurning Halol oziq-ovqat (2-o'rin), Farmatsevtika va kosmetika (3-o'rin), Media va Rekreatsiya (3-o'rin) va Musulmonlarga do'stona sayohat (9-o'rin) bo'yicha kuchli ko'rsatkichlari pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanishdagi Islom iqtisodiyoti rolining ijobiy belgilaridir. Singapurning yiliga 255 milliard dollardan ortiq global halol savdosidagi ulushini ta'kidlash lozim. Bu esa halol savdoda ulkan salohiyat va o'sish uchun imkoniyat mavjudligini anglatmoqda.

Halol sanoatining bir qancha tarmoqlari bo'yicha jahon bozorida raqobatlasha oladigan davlat - Indoneziya - halol bozorida asosiy “o'yinchi” bo'lishni maqsad qilgan mamlakat bo'lib, hozirda halol mahsulotlarning dunyodagi eng katta iste'molchisi hisoblanadi. 207 milliondan ortiq musulmonlar (aholining qariyb 87%) yashaydigan Indoneziya dunyodagi eng katta musulmon jamiyatiga mezbonlik qiladi. Halol sertifikatlangan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj ushbu Janubi-Sharqiy Osiyo davlati uchun katta biznes imkoniyatiga aylandi. Indoneziyada halol sanoati qanday rivojlanayotganini batafsil ko'rib chiqaylik. 2014-yilda Turizm vazirligi ko'proq musulmon sayohatchilarni jalb qilish uchun halol turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratdi. Bu konsepsiya islom qonunlariga rioya qilishga mo'ljallangan bir qator xizmatlarni, jumladan, halol sertifikatlangan taomlardan tortib musulmonlarga mos mehmonxonalargacha taklif etadi. Global musulmon sayohatlari indeksiga ko'ra, Indoneziya 2019-yilda halol turizm bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi.

Ichimliklarni iste'mol qilish va sotish Indoneziya hukumati tomonidan qattiq tartibga solinagan. Ommaviy axborot vositalarida spirtli ichimliklarni reklama qilish qat'iyman man etiladi.

2019-yilgacha Indoneziya Ulamolar Kengashi va Indoneziya Ulamolar Kengashining Oziq-ovqat va dori-darmonlarni baholash organi (LPPOM MUI) mamlakatdagi yagona halolni sertifikatlash organi sifatida qabul qilingan. LPPOM MUI texnik qismlarni baholaydi va MUI (fatvo kengashi) Halol qarorini qabul qiladi. So'ngra Indoneziyaning “Halol” qonuni 2019-yil 17-oktabrdan boshlab mamlakatdagi ko'plab iste'mol mahsulotlari va tegishli

xizmatlarning “Halol” sertifikatiga ega bo‘lishini talab qiladi. Halol sertifikatiga muhtoj bo‘lgan korxonalar endi yangi tashkil etilgan Halol mahsulotlarni sertifikatlash agentligiga (BPJPH) murojaat qilishlari kerak bo‘ladi. Halol qonuni xalqaro Halol agentliklari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdan tashqari, halol mahsulotlarni qayta ishlash, materiallar va sertifikatlashni tartibga soladi. Indoneziya 2020-2021-yillardagi Global Islom Iqtisodiy holati ma’lumotlariga ko‘ra mamlakatning halol oziq-ovqat sanoati 4-o‘rinni, halol turizm sanoati dunyoda 6-o‘rinni, musulmon moda sanoati 3-o‘rinni, islomiy moliya sanoati esa 6-o‘rinni egallagan. Yana ba’zi statistik ma’lumotlar Indoneziyadagi musulmon iste’molchilarning 2017-yilda halol turmush tarzi mahsulotlari va xizmatlariga sarflagan mablag‘larini, 2025-yil uchun prognozini ko‘rsatadi. 2017-yilda Indoneziyadagi musulmon iste’molchilar halol oziq-ovqat va ichimliklarga taxminan 170,2 milliard AQSH dollari sarflagan. 2025-yilda bu ko‘rsatkich 247,8 milliard AQSH dollariga yetishi kutilmoqda.

**Global Islom Iqtisodiy Holati Hisoboti 2020/21 bo‘yicha Top 15 talik davlatlar va ularning ma’lum sohalar bo‘yicha egallagan ko‘rsatkichlari ro‘yxati (foizlarda)**

T/r	Davlatlar nomi	Islom iqtisodiyoti bo‘yicha umumiy ko‘rsatkich	Halol oziq-ovqat	Musulmonlar do‘stona sayohati
1.	Malayziya	290.2	209.8	98.3
2.	Saudiya Arabistoni	155.1	51.1	36.8
3.	Birlashgan Arab Amirliklari	133.0	104.4	78.3
4.	Indoneziya	91.2	71.5	45.3
5.	Iordaniya	88.1	39.6	43.3
6.	Bahrayn	86.9	42.2	31.9
7.	Quvayt	73.3	42.2	27.1
8.	Pokiston	70.9	54.7	23.6
9.	Eron	64.0	60.5	28.8
10.	Qatar	63.1	44.3	36.7
11.	Ummon	60.0	47.1	33.2
12.	Turkiya	55.9	70.7	62.7
13.	Nigeriya	53.1	20.7	14.1
14.	Shri-Lanka	49.2	27.3	13.3
15.	Singapur	47.4	152.2	42.6

**Manba:** Global Islom Iqtisodiy Holati Hisoboti 2020/21 (The Global Islamic Economy Report 2020/21)

Mana shunday rivojlanib borayotgan halol sanoatiga kirish va yuqori natijalarga erishish uchun O‘zbekiston ham bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar

O‘zbekiston uchun mustahkam halol ekotizimini tezda rivojlantirish, ichki halol jarayonlari rivojlantirilgan yetakchi transmilliy kompaniyalarni jalb qilish uchun asosiy vositadir.

Jahon sayyohlik tashkilotlarining ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 300-330 million sayyohlar dunyodagi eng muhim diniy obyektlarga tashrif buyurishadi.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqot ishimizdan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, mamlakatimizda "Halol" standartini amaliyotga joriy etishning afzalliklari hamda ishlab chiqarish korxonalariga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga mazkur standartni qabul qilish orqali quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

birinchidan, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan barcha halolga tegishli bo‘lgan mahsulotlarni musulmon davlatlarga eksport qilish orqali milliy iqtisodiyotning o‘shishiga hissa qo‘shiladi;

ikkinchidan, milliy infratuzilmani takomillashtirish va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari olinishi va shu asosda ushbu sanoatga kirish va mustahkam o‘rinlarni egallaydi;

uchinchidan, mamlakat uchun kengroq eksport imkoniyatlaridan foydalanish uchun muhim qadam global miqyosdagi asosiy sertifikatlashtirish va akkreditatsiya organlari bilan ishlash, mustahkam sertifikatlashtirish imkoniyatlarini rivojlantiradi;

to‘rtinchidan, O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish va tashrif buyuradigan musulmon turistlarga halol oziq-ovqat hamda boshqa halol mahsulotlar bilan ta’minlash imkoniyatini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Global Muslim Travel Index 2020, Mastercard-Crescent Rating, APRIL 2020.
2. Mian N. Riaz, Muhammad M. Chaudry. —HALAL FOOD PRODUCTION Boca Raton London New York Washington, D.C. 2004.
3. Bergeaud-Blackler, John Lever, Johan Fischer HALAL MATTERS Islam, politics and markets in global perspective. New York. 2016
4. Wan Melissa Wan-Hassan, Khairil Wahidin Awang. Halal Food in New Zealand Restaurants: An Exploratory Study. Int. Journal of Economics and Management. ISSN 1823 - 836X
5. Al Qaradawi, Y. 1985 (1995) Al-halāl wal harām fil Islām (The lawful and the prohibited in Islam)(Kamal El-Hebawy, M.M. Siddiqui, Syed Shukry and Ahmad Zaki Hammad, Trans.), Islamic Book Trust: Petaling Jaya, Malaysia
6. Uzakov YA.M. Pererabotka myasa i proizvodstvo myasoproduktov po texnologii —Xalyal Uchebnoe posobie. Almata. 2008
7. Damir Muxetdinov, Sergey Boroday —Islam v Evrope Uchebnoe posobie. ID «Medina». Moskva. 2016 g.
8. Zuhridin Husniddinov tahriri ostida —ISLOM ENSIKLOPEDIYASI «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004
9. Joani Dong, Ira Sugita GAIN Report 2017
10. Garrett Mcdonald GAIN Report 2021
11. <https://moneycompass.com>
12. <https://www.aseanbriefing.com>
13. <https://www.asiahalaldirectory.com>
14. <https://www.standart.uz>

<p><b>З.Сувонов, М.Шухратжонова</b>  <b>Халяльная пищевая промышленность и перспективы ее развития в Узбекистане</b></p>	<p><b>Z.Suvonov, M.Shukhratjonova</b>  <b>Halal food industry and prospects for its development in Uzbekistan</b></p>
<p><b>Аннотация:</b> В данной статье рассматриваются особенности рынка халяльной пищевой промышленности в разрезе стран мира, а также рассматриваются возможности её развития в Узбекистане.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> Халяль, халяльная еда, халяльная пищевая промышленность, мусульмане, шариат, исламские страны, халяльная сертификация, потребители-мусульмане.</p>	<p><b>Abstract:</b> This article discusses the features of the halal food industry market in the context of the countries of the world, and also considers the possibilities of its development in Uzbekistan.</p> <p><b>Keywords:</b> Halal, halal food, halal food industry, muslims, sharia, islamic countries, halal certification, muslim consumers.</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

9.03.2023 йилда теришга берилди. 22.03.2023 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0016 А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023